

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAVQULODDA HOLATLARDA INSON HUQUQLARINI CHEKLASHNING ASOSLARI

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar o'g'li

Toshkent davlatyuridikuniversiteti

“Xalqaro huquq va inson huquqlari” mutaxassisligi magistranti.

muzaffarovichmuhammadjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15694651>

Annotatsiya: Ushbu tezisda favqulodda holatlarda inson huquqlarining cheklashning O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy asoslari muhokama qilingan. Shuningdek, “favqulodda holat to'g'risida”gi qonunga ham atroflicha to'xtalangan.

Kalit so'zlar: favqulodda holat, inson huquqlari, cheklov, qonuniylik.

GROUNDS FOR RESTRICTING HUMAN RIGHTS IN EMERGENCY SITUATIONS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar's son

**The master student of Tashkent State University
of Law, majoring in International Law and Human Rights.**

muzaffarovichmuhammadjon@gmail.com

Abstract: This thesis discusses the legal basis for restricting human rights in emergency situations in the Republic of Uzbekistan. The Law "On the State of Emergency" is also discussed in detail.

Keywords: state of emergency, human rights, restriction, legality.

O'zbekiston Respublikasida favqulodda holatlarda inson huquqlarini cheklashning asoslariga murojaat qiladigan bo'lsak. Birinchi navbatda ma'lum bir huquq yoki cheklovlar mamlakatning qaysi qonun hujjatida aks etgan degan savolga javob beradigan bo'lsak, barcha insonlarning hayoliga birinchi bo'lib Konstitutsiya keladi. Chunki Konstitutsiya bu mamlakatning asosiy va bosh qomusi bo'lib u yerda keltirilgan huquq va majburiyatlarning barchasi konstitutsiyaviy huquqlar hisoblanadi. Shuning uchun ham bu huquqlarni Konstitutsiyada aks etishi muhim hisoblanadi. Endi bevosita Konstitutsiyamizga yuzlanadigan bo'lsak, 21-moddada inson huquqlarini ma'lum bir vaqtlarda cheklash mumkinligi to'g'risida yangi norma qo'shilganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 21-moddaga ko'ra:

“Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.

Inson o'z huquq va erkinliklarini amlaga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart.

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'ligini, ijtimoiy ahloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin¹. Demak bu moddaga e'tibor beradigan bo'lsak, inson huquqlarini ma'lum bir sabablar tufayli cheklash mumkinligi aynan ushbu moddaning 3-bandida o'z aksini topgan. Va ushbu chelovlar joriy qilinishi jarayonida ma'lum bir talablarga javob berishi kerakligi ham

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. 3-bet.

ta'kidlangan. Shunday talablardan biri bu ushbu joriy qilinayotgan cheklovlar qonunga muvofiq bo'lishi ya'ni qonuniylik prinsipiga javob berishi kerakligi aytilgan. Keyingi inson huquqlarini cheklash uchun asos bo'ladigan holatlar xalqaro huquqiy hujjatlarda keltirilgan asoslar bilan deyarli bir xilligini ko'rishimiz mumkin. Demak, aytishimiz mumkinki, inson huquqlarini ma'lum bir vaqtda cheklash asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan.

Endi favquldda holat qachon e'lon qilinadi, qanday holatlarda favqulodda holat rejimi joriy qilinadi, kim tomonidan e'lon qilinadi, insonlarning qaysi huquqlari cheklanishi mumkin degan savollarga javob berishimiz uchun biz O'zbekiston Respublikasining "Favqulodda holat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuniga yuzlanishimiz kerak bo'ladi. Ushbu qonun 2021-yilda qabul qilingan. Ushbu qonunning 3-moddasiga qaraydigan bo'lsak, "Asosiy tushunchalar" deb nomlanagn ushbu moddaga ko'ra favqulodda holat tushunchasiga ta'rif berilgan va bu ta'rif quyidagicha: "favqulodda holat - O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklariga, shuningdek yuridik shaxslarning huquqlariga nisbatan ushbu Konstitutsiyaviy Qonunda nazarda tutilgan ayrim cheklovlar belgilashga yo'l qo'yadigan hamda ularning zimmasiga qo'shimcha majburiyatlar yuklaydigan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida vaqtincha joriy qilinadigan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'li nazar, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining alohida huquqiy rejimi"². Demak biz ushbu keltirilgan ta'rif orqali "favqulodda holat" nima ekanligini deyarli to'liq tushunib olishimiz mumkin. Yuqoridagi ta'rifga ko'ra favqulodda holat rejimi joriy qilingandan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining balki, favqulodda holat joriy qilingan hududda bo'lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ham ayrim huquqlari cheklanadi. Shuningdek, favqulodda holat O'zbekiston Respublikasining ayrim hududida yoki ayrim hududlarida joriy qilinishi mumkin. Bundan tashqari favqulodda holatni joriy qilish xalqaro huquqqa mos bo'lgan vaqtinchalik prinsipi ham ushbu ,odda o'z aksini topgan va favqulodda holatlar vaqtincha joriy qilinishi ta'kidlangan. Endi favqulodda holat joriy qilinganda ko'p ishlatiladigan tushunchalardan biri bo'lgan "komendantlik soati" tushunchasiga to'xtaladiga bo'lsak: "komendantlik soati – sutkaning maxsus berilgan ruxsatnomalarsiz va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarsiz ko'chalarda hamda bosha jamoat joylarida yoxud turar joydan tashqarida bo'lishga taqiq belgilangan vaqt"³. Ya'ni fuqarolar ushbu vaqtlarda maxsus talab qilingan hujjatlarsiz ko'chada va jamoat joylarida bo'lishi mumkin bo'lmagan vaqt hisoblandi.

Endi favqulodda holatni joriy qilishdan maqsad nima degan savolga javob beradigan bo'lsak, uni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etish, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash hamda mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi va hududiy yaxlitligini himoya qilishdan iborat desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

O'zi ushbu qonunga ko'ra favqulodda holat oz'i qachon joriy qilinadi va nima sababdan joriy qilinadi va qanday vaziyatlarda joriy qilinadi degan savollarga javob beradigan bo'lsak, ushbu qonunning 5-moddasiga ko'ra: "Favqulodda holat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayotiga, sog'ligiga va xavfsizligiga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga va

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni "Favqulodda holat to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-5774840>

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni "Favqulodda holat to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-5774840>

(yoki) hududiy yaxlitligiga bevosita tahdid soladigan hamda favqulodda choralar qo'llamasdan bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, alohida hollarda joriy etiladi. Bunday holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

real tashqi xavf, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini va (yoki) hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga urinishlar, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik harakatlari, shuningdek zo'ravonlik harakatlari bilan bir vaqtda yuz beradigan, fuqarolarning hayotiga, sog'lig'iga va xavfsizligiga, davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning kundalik faoliyatiga bevosita tahdid soluvchi o'ta muhim hamda toifalangan obyektlarni yoki ayrim joylarni to'sish yoki bosib olish, qonunga xilof qurolli tuzilmalarni tayyorlash (tashkil etish) va ularning faoliyati, millatlararo, konfessiyalararo va chegaraviy nizolar;

keng qamrovli avariya-qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar amalga oshirilishini talab etadigan yirik halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar, favqulodda ekologik vaziyatlar"⁴. Ushbu moddani sharxlaydigan bo'lsak, favqulodda holat O'zbekiston Respublikasi hududida qachonki, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayotiga, sog'lig'iga va xavfsizligiga shuningdek, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga yoki hududiy yaxlitligiga bevosita tahdid soladigan va favqulodda holat rejimini joriy qilmasdan bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlarda joriy qilinadi. Va endi aynan ushbu holatlarga qanday vaziyatlar kiradi degan savolga javob beradigan bo'lsak, ushbu savolning javobini 5-moddaning 2-3-bandlaridan olishimiz mumkin.

Endi O'zbekiston Respublikasi hududida favqulodda holat qanday yoki kim tomonidan joriy qilinadi degan savolga javob beradigan bo'lsak, ushbu qonunning 6-moddasiga ("Favqulodda holatni joriy etish") murojaat qilishimiz kerak: "Favqulodda holat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoni darhol ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. 3-bet.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni "Favqulodda holat to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-5774840>

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni "Favqulodda holat to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-5774840>